

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berish yakunlari (06.01.2025)

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/disclosure/shareholder-meeting/o-zkimyosanoat-aksiyadorlik-jamiyati-aksiyadorlarining-06012025>

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qabul qilingan qarorlar bo'yicha ovoz berish yakunlari

Yig'ilish o'tkazilgan joy:
Yig'ilish o'tkazilgan sana:

Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy.
06.01.2025-yil.

1. Sanoq komissiyasi a'zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

J. Raximov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

2. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo'yicha ma'ruzachilarning chiqishlari uchun – 10 daqiqagacha;

- qo'shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 5 daqiqa.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

3. "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil 31-dekabrida yakunlangan yillik moliyaviy hisobotlarini Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditi bo'yicha "KPMG Audit" MChJ auditorlik tashkilotining 2024-yil 14-oktabrdagi auditorlik xulosasi tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.

4. "O'zkimyosanoat" AJning 2024-yil yakuni bo'yicha konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlari bo'yicha moliyaviy hisobotlarning xalqaro audit standartlariga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun "KPMG Audit" MChJ auditorlik tashkiloti tanlansin va ushbu tashkilotning xizmatlariga

to'lanadigan eng ko'p haq miqdori

16 138 080 ming so'm qilib belgilansin hamda u bilan o'rnatilgan tartibda shartnoma tuzilsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 1 671 293 147 ovoz yoki 57,09 %, Qarshi – 1 256 417 557 ovoz yoki 42,91 %, Betaraf – yo'q.

5.1. Quyidagilar:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2024-yil 20-sentabrdagi 03/09-2-21-17/1093-son xati;

- Davlat aktivlarini xususiylashtirish va xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish davlat komissiyasining 2024-yil 13-sentabrdagi 84-son (VM-21/24-84-son 13.09.2024-yil) yig'ilish bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5.2. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi "O'zkimyosanoat" AJga tegishli 100 foiz ya'ni har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm bo'lgan umumiy nominal qiymati 2 662 428 497 387 so'mlik, 2 662 428 497 387 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya paketini balans (qoldiq) qiymatida "O'zkimyosanoat" AJ ustav kapitalidagi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushini hamda yetmagan qismiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini mos ravishda kamaytirish hisobiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitim ma'qullansin.

5.3. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi o'rnatilgan tartibda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi 100 foiz aksiyalar paketini mazkur yig'ilish qarorining 5.2-bandida nazarda tutilgan shartlar asosida Davlat agentligiga o'tkazib berish bo'yicha qimmatli qog'ozlarni o'tkazish bo'yicha kelishuv va DEPO topshiriqnomalarni, shu jumladan barcha zarur hujjatlarni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 1 256 417 557 ovoz yoki 42,91 %, Qarshi – 1 671 293 147 ovoz yoki 57,09 %, Betaraf – yo'q.

6. "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi o'rnatilgan tartibda "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi "O'zkimyosanoat" AJning 100 foiz ulushini balans (qoldiq) qiymatida "O'zkimyosanoat" AJ ustav kapitalidagi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushini hamda yetmagan qismiga Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini mos ravishda kamaytirish bo'yicha zarur hujjatlarni rasmiylashtirsin hamda tegishli boshqaruv organiga kiritsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 1 256 417 557 ovoz yoki 42,91 %, Qarshi – 1 671 293 147 ovoz yoki 57,09 %, Betaraf – yo'q.

7. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 1 256 417 557 ovoz yoki 42,91 %, Qarshi – 1 671 293 147 ovoz yoki 57,09 %, Betaraf – yo'q.

8. Jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish uchun qoldirilsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 1 256 417 557 ovoz yoki 42,91 %, Qarshi – 1 671 293 147 ovoz yoki 57,09 %, Betaraf – yo'q.

9.1. Odil Shukurovich Temirov "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi lavozimiga tayinlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.

9.2. Yevgeniy Aleksandrovich Korjikov "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va improtni maqbullashtirish bo'yicha

birinchi o'rinbosari lavozimiga tayinlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.

9.3. Akbar Djaxangirovich Kurbanov "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining investitsiya faoliyati bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlansin va u bilan qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat shartnomasi uch yil muddatga tuzilsin.

9.4. Jamiyat nomidan boshqaruv raisi va a'zolari bilan mazkur bayonnoma qarorlari nazarda tutilgan muddatga mehnat shartnomasini imzolash vakolati kuzatuv kengashi raisiga berilsin.

Ovoz berish natijalari:

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo'q, Betaraf – yo'q.